

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 2 (6) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Kurbanov Eldar Ermamatovich, Qormishov Mirjalol Jumamurod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MADANIY MARKAZLARINING INSTITUTSIONAL ROLI VA VAZIFASI (Sirdaryo viloyati markazlari misolida)	11-15
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> SOPOLLI-KO'ZALI ARXEOLGIK QATLAMLARIDA SHIMOLIY DASHT QABILALARINING IZLARI	16-19
<i>Акбарова Камила Шухрат кизи</i> МЕЖДУ СЕКУЛЯРИЗАЦИЙ И МОДЕРНИЗАЦИЕЙ: СОВЕТСКАЯ ПОЛИТИКА В СФЕРЕ РЕЛИГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	20-26
<i>Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li</i> SUV TA'MINOTI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	27-31
<i>Sitorabonu Bobojonova</i> BUXORODA DASTLABKI MUZEYNING TASHKIL TOPISHI.....	32-36
<i>O'ralov Orzubek</i> GEOGRAFIK KASHFIYOTLARGA QADAR POLINEZIYA XALQLARINING RIVOJLANISHI VA DAVLATCHILIK INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI TARIXI.....	37-45
<i>Qahhorov Shohjaxon Shodiyor o'g'li</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TARIXIY VA MA'NAVIY TAHLILI.....	46-50

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Madartov Bahrom</i> TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA O'ZARO MUNOSABATLARNI HISOBGA OLISH ASOSIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	51-55
<i>Xudayberdiyev Otabek Absalomovich</i> XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'MINOT ZANJIRI VA LOGISTIKA KONTROLLINGINING ROLI	56-64
<i>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</i> O'ZBEKISTONDA INFLYATSION BOSIM OMILLARI VA ULARNING ISTE'MOL NARXLARI INDEKSIDA NAMOYON BO'LISHI.....	65-75
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR TIZIMINI ANIQLASH VA XIZMAT SIFATI QIYMAT TAKLIFI MIJOZ TAJRIBASI BREND KAPITALI HAMDA TEZKORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH	76-87

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> INSON ONGINING TABIATINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	88-93
--	-------

<i>Utegenova Jamila Djolmurzayevna</i> O'ZBEKISTONDA BIOETIKANING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY ASOSLARI	94-97
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i> JAMIYAT YUKSALISHIDA IJTIMOY NAZORATNING ROLI.....	98-102
<i>Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich</i> RUHIY KAMOLOT TUSHUNCHASINING FALSAFIY MAZMUNI VA TARIXIY ILDIZLARI .	103-108
<i>Ochilov Jamshid Abdurashidovich</i> KOSMOGEN, TEXNOGEN, ANTROPOGEN SIVILIZATSIYALAR MOHIYATINING ONTOLOGIK TALQINI	109-117
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> KASABA UYUSHMALARI TIZIMIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	118-126
<i>Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna</i> ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA FANLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI MASALALARI	127-130
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Axmedov Oybek Saporbayevich</i> INGLIZ TILIDAGI SOLIQ-BOJXONA TERMINOLOGIK BIRLIKLARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING STILISTIK MUAMMOLARI.....	131-139
<i>Babadjanova Nazokat</i> OGAHIYNING SO'Z VA NUTQ MASALALARIGA OID QARASHLARINING MA'RIFIY MANBALARI	140-148
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich, Tog'ayeva Shoxnoza Elmurod qizi</i> ADABIYOTIDA "ABSURD" TUSHUNCHASI	149-153
<i>Abdullayeva Rahima Raimqul qizi</i> MEDIA YORDAMIDA IMIDJNING SHAKLLANISHI VA IJTIMOY FIKR	154-161
<i>Fozilov Arabjon Nozimjon o'g'li</i> CHET TILLARINI O'RGANISHDA SO'Z YODLASHNING AHAMIYATI	162-165
<i>Sarvinov Abdiraxmonova Davron qizi, Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> THE SIGNIFICANCE OF STUDYING GENDER REPRESENTATION IN IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS.....	166-171
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> TAVALLO IJODIDA POETIK OBRAZ YANGILANISHINING IJTIMOY-TARIXIY VA ADABIY- ESTETIK OMILLARI.....	172-185
<i>Кодирова Зарина Баходировна</i> ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ ДЭВИДА УОЛЛЬЯМСА: «DEMON DENTIST», «THE FING», «GANGSTA GRANNY».....	186-191
<i>Ismatilloev Jobir</i> "FIRDAVS UL-IQBOL"DAGI QASIDALARDA HUKMDORLAR MADHI	192-197
<i>Bozorova Nasiba</i> O'LMAS UMARBEOVNING "YOZ YOMG'IRI" QISSASIDA JINOYATNI O'RGANISHDA RETROSPEKSIYA USULI	198-203

<i>Ганиева Зухра Муратбаевна</i> ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СМЕРТЬ» В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ	204-212
--	---------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich, Ro'ziboyev Asilbek</i> SUN'IY INTELLEKT QARORLARIDA ADOLATSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	213-218
<i>Bazarova Dildora Baxodirovna</i> ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDA "RAQAMLI SUD"	219-226
<i>Babaev Djaxongir Ismailbekovich</i> КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОГОВОРА ПИТЬЕВОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА	227-229
<i>Azходжаева Роза Алтыновна</i> РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ.....	230-235
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> ЭЛЕКТРОННЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В ДЕЛАХ О КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЯХ: ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ФИКСАЦИИ И ПРАВОВОЙ ОЦЕНКИ	236-246
<i>Alijanov Ilhomjon Erkinjon o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIGA QABUL QILISHDA NOMZODLARGA QO'YILGAN TALABLAR, XIZMATGA QABUL QILISH VA YOSH MUTAXASSISLAR BILAN ISHLASHGA DOIR FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	247-253
<i>Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi, Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich</i> FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLAR HUQUQIY MOHIYATI.....	254-258
<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI	259-265
<i>Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich</i> SPORTCHILARNI VAQTINCHALIK IJARAGA Olish SHARTNOMASINING SPORT HUQUQIDAGI O'RNI	266-272
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI TARTIBGA SOLISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI IJRO ORGANLARINING VAZIFALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	273-278
<i>Umarova Xolisxon Nomoz qizi</i> KORPORATSIYA DIREKTORLARINING FUNKSIONAL VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ JAVOBGARLIGI CHEGARASI	279-286
<i>Yaqubova Guli Qosimboy qizi</i> VOYAGA YETMAGANLAR BILAN BOG'LIQ ISHLARNI FUQAROLIK SUDLARIDA KO'RISHDA PROKURORNING ISHTIROKI TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	287-294
<i>Ibrohimov Azimjon</i> XO'JALIK JAMIYATLARI BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMIDA IJRO ORGANI: ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA	295-301

<i>Choriyeva Xupshidabonu Xuppam qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "VASIYLIK VA HOMIYLIK TO'G'RISIDA"GI QONUNINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	302-310
<i>Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li</i> MA'MURIY AKT. MA'MURIY AKTNING MAZMUN-MOHİYATI. GERMANIYA TAJRIBASI.....	311-316
<i>Tursunov Ilxomjon Salimovich</i> MUQADDAM SUDLANGAN SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILISHI MUMKIN BULGAN JINOIY HARAKATLARNI OLDINI OLISH VA MAXSUS PROFILAKTIKANI TAKOMILLASHTIRISH	317-321
<i>Xojanazarov Otabek Saydazimovich</i> OZODLIK DAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA.....	322-329
<i>Raxmedov Xurshid Ashrapxodjayevich</i> JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA PROTSESSUAL AHAMIYATI	330-339
<i>Mansurova Xulkar Nabiyevna</i> FUQAROLIK PROTSESSINING TEZKORLIGINI TA'MINLASHDA SIRTDAN HAL QILUV QARORI CHIQRISHNING AHAMIYATI	340-349
<i>Begimova Nasiba Xudayberdievna</i> FARZANDLIKKA OLISH INSTITUTINING TADRIJIY RIVOJLANISHI	350-358
<i>Yo'ldoshbekov Anvar</i> NAQDSIZ HISOB-KITOB LAR VA RAQAMLI NAZORAT TIZIMLARINING HUQUQIY AHAMIYATI	359-367
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> EVRISTIK TA'LIM NAZARIYASIDA TA'LIM OLUVCHINING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	368-372
<i>Shukurov Mirjalol Norpulatovich</i> YAKKAKURASHCHILARNI TEXNIK USULLARIGA O'RGATISHDA KLAS TER USLUBIDAN FOYDALAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH	373-377
<i>Tilyabayev Kamil Zaitjonovich</i> O'ZBEK TILINING O'RGANILISHI VA DEKOLONIZATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: (DE)KOLONIAL HIS-TUYG'ULAR, MILLAT VA O'Z-O'ZINI ANGLASH	378-383
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> SHARQ MUTAFAKKIRLARNING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA.....	384-388
<i>Xo'jamqulov Rasulbek Qurbon o'g'li</i> KOMPYUTER GRAFIKASI TEXNOLOGIYALARINI LOYIHA ASOSIDA O'QITISHGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	389-393
<i>Badalov Ulug'bek Xikmatovich</i> GEOGRAFIYA FANI DARSLARIDA ONLAYN GIS TIZIMLARIDAN FOYDALANISH.....	394-398

<i>Anvarjonova Nodirakhon Nasimbek qizi</i> IS EXPLICIT GRAMMAR INSTRUCTION STILL PEDAGOGICALLY JUSTIFIED? A CRITICAL RECONSIDERATION OF ITS ROLE IN CONTEMPORARY ENGLISH LANGUAGE EDUCATION.....	399-406
<i>Imomov Fozil Shakarbek o'g'li</i> TEMPERAMENT NAZARIYASI VA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR ASOSIDA GRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA SAN'AT TERAPIYASI KONTEKSTIDA.....	407-412
<i>Курбанбаев Джавод Аминбаевич</i> КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ ГЛОССАРИЕВ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ	413-417
<i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i> JAMOADA LIDERLIK VA UNING SIFATLARI (SPORT JAMOALARI MISOLIDA).....	418-421
<i>Yuldasheva Muhayyo Alimbaevna</i> AVTOMOBILLARDA TASHISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISH FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARINING O'RNI.....	422-429
<i>Umarov Komil, Sobirov Orif, Sultanov Rustam, Egamberdiyev Abdullo</i> YUQORI MALAKALI GANDBOLCHILAR MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	430-435
<i>Doniyorova Gulnoza Anvar qizi, Kurbanova Gulnoz Negmatovna</i> INTERAKTIV VOSITALAR VA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	436-441
<i>Nafasov Arslon Komilovich</i> PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI YO'NALISHIDA TARIX O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	442-447
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna, Qalandarova Sevinch Aqiljon qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	448-453

Received: 15 January 2026
Accepted: 2 February 2026
Published: 14 February 2026

Article / Original Paper

METHODOLOGY FOR DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCIES THROUGH THE USE OF INTERACTIVE TOOLS AND INFORMATION RESOURCES

¹**Doniyorova Gulnoza Anvar kizi,**

²**Kurbanova Gulnoz Negmatovna**

¹Karshi State University, independent researcher

²Bukhara State Medical Institute, Associate Professor of the Department of Uzbek Language and Literature, Russian and English Languages

Abstract. This article presents a methodology for developing professional competencies in higher education through the systematic use of interactive tools and information resources. The theoretical foundations of the competency-based approach, the didactic potential of interactive educational technologies, and the integration of digital information resources into the learning process are analyzed. A quasi-experimental study involving 120 students was conducted, with participants divided into control and experimental groups. The experimental group was taught using problem-based learning, case studies, group discussions, digital portfolios, and electronic learning platforms. The results demonstrate a significant improvement in professional competencies, including knowledge application, practical skills, communication abilities, digital literacy, and independent decision-making. The findings confirm the effectiveness of the proposed methodology and support its implementation in higher and vocational education systems.

Keywords: professional competencies, interactive learning, information resources, digital technologies, competency-based approach, higher education, e-learning environment.

INTERAKTIV VOSITALAR VA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

¹**Doniyorova Gulnoza Anvar qizi.,**

²**Kurbanova Gulnoz Negmatovna**

¹Qarshi davlat universiteti., mustaqil izlanuvchi

²Buxoro davlat tibbiyot instituti O'zbek tili va adabiyoti, rus va ingliz tili kafedrası dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim sharoitida interaktiv vositalar va axborot resurslaridan tizimli foydalanish asosida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi yoritilgan. Tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari, interaktiv ta'lim texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari hamda raqamli axborot resurslarining ta'lim jarayoniga integratsiyasi tahlil qilindi. Kvazi-eksperimental tadqiqotda 120 nafar talaba ishtirok etib, ular nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. Tajriba guruhida muammoli o'qitish, keys-stadi, jamoaviy muhokama, raqamli portfolio va elektron ta'lim platformalariga asoslangan metodika joriy etildi. Natijalar kasbiy kompetensiyalarning bilim, amaliy ko'nikma, kommunikativ malaka, raqamli savodxonlik va mustaqil qaror qabul qilish komponentlari bo'yicha sezilarli o'sishni ko'rsatdi. Olingan ma'lumotlar interaktiv vositalar va axborot resurslariga asoslangan metodikaning ta'lim jarayonida yuqori samaradorlikka ega ekanini tasdiqlaydi hamda uni oliy va kasbiy ta'lim tizimida keng joriy etish maqsadga muvofiqligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetensiya, interaktiv ta'lim, axborot resurslari, raqamli texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, oliy ta'lim, elektron ta'lim muhiti.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I2Y2026N63>

Zamonaviy jamiyatda raqamli transformatsiya sur'atlarining jadallashuvi, mehnat bozori talablarining tez o'zgarishi va kasbiy faoliyatda axborot oqimining keskin ortishi mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etishni talab etmoqda. Endilikda mutaxassis nafaqat o'z sohasiga oid nazariy bilimlarni bilishi, balki ularni amaliy vaziyatlarda qo'llay olishi, tezkor qaror qabul qilishi, raqamli resurslar bilan ishlashi, jamoada muloqot qilishi, muammolarni tahlil qilib yechim topishi hamda o'z kasbiy rivojlanishini boshqarishi zarur. Shu ma'noda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi ta'lim tizimining strategik vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari turlicha yoritiladi, biroq aksariyat tadqiqotchilar ularni shaxsning bilim, ko'nikma, malaka, qadriyat va kasbiy xulq-atvor elementlarining integratsiyalashgan natijasi sifatida ko'rsatadi [1, 3, 6]. Kompetensiyaviy yondashuvning mohiyati shundan iboratki, u o'qitish jarayonida "bilish"dan "bajara olish"ga, "tushunish"dan "muammoli vaziyatda qo'llash"ga, "yodlash"dan "tahlil va refleksiya"ga o'tishni taqozo etadi [8, 9]. Demak, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish ta'lim jarayonini mazmunan ham, metodik jihatdan ham qayta qurishni talab qiladi.

Klassik (an'anaviy) ta'lim modeli ko'p hollarda ma'ruza, reproduktiv topshiriqlar va nazoratning standart shakllariga tayanadi. Bunday yondashuvda talaba ko'pincha passiv tinglovchi rolida qoladi, natijada real kasbiy faoliyatga xos bo'lgan: vaziyatni baholash, ma'lumotni tez izlash, jamoaviy muhokama, qaror qabul qilish va natijani himoya qilish kabi kompetensiyalar yetarli darajada rivojlanmaydi [3]. Ayniqsa, raqamli muhitda ishlash kompetensiyasi, axborot madaniyati va media savodxonlik kabi sifatlar mazkur model doirasida cheklangan holda shakllanadi [6].

So'nggi yillarda ta'lim jarayonida interaktiv vositalardan foydalanish, axborot resurslarini o'qitish mazmuni bilan integratsiya qilish va o'quv faoliyatini loyiha, muammo, keys hamda simulyatsiya asosida tashkil etish kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali yo'li sifatida keng muhokama qilinmoqda [10]. Interaktiv vositalar deganda, talabaning o'quv jarayonida faol ishtirokini ta'minlaydigan hamda o'zaro hamkorlikni kuchaytiradigan texnologik va metodik yechimlar tushuniladi. Bular qatoriga LMS platformalar (Moodle, Canvas va boshqalar), test va so'rovnoma tizimlari (Google Forms, Kahoot), taqdimot va hamkorlik vositalari (Jamboard, Miro), virtual laboratoriyalar, simulyatorlar, elektron kutubxonalar, ilmiy ma'lumotlar bazalari, raqamli portfoliolar va video-kontent platformalari kiradi [11].

Olimlar fikriga ko'ra, interaktiv ta'lim muhitida talaba "ta'lim subyekti" sifatida shakllanadi, ya'ni u o'quv jarayonining tashabbuskori, muammolar yechimining hamkor muallifi va natijaning mas'ul ijrochisiga aylanadi [12]. Bu jarayon esa o'z navbatida kasbiy motivatsiya, refleksiya, o'z-o'zini boshqarish va metakognitiv ko'nikmalarni kuchaytiradi [14]. Shuningdek, axborot resurslaridan samarali foydalanish orqali talabalar ilmiy manbalarni tahlil qilish, ma'lumotni tanlash va baholash, plagiat risklarini kamaytirgan holda qayta ishlash, dalilga asoslangan xulosa chiqarish kabi akademik va kasbiy madaniyat elementlarini ham o'zlashtiradilar [13].

Biroq amaliyotda interaktiv vositalar va axborot resurslaridan foydalanish ko'pincha tizimsiz, epizodik va texnik imkoniyatni ko'rsatishga qaratilgan shaklda uchraydi. Ya'ni, vosita mavjud bo'lsa-da, uni qaysi didaktik maqsadda, qaysi bosqichda, qaysi kompetensiya komponentini rivojlantirish uchun va qanday baholash mezonlari bilan qo'llash masalasi aniq metodik ko'rsatmalarga ega emas [15]. Natijada interaktiv texnologiyalar "ta'lim sifatini

oshiruvchi vosita”dan ko’ra “qo’shimcha bezak” yoki “nazoratni avtomatlashtirish” darajasida qolib ketish xavfi mavjud.

Shu sababli, interaktiv vositalar va axborot resurslaridan foydalanish orqali kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning metodik asoslarini ishlab chiqish, uni amaliy sinovdan o’tkazish va samaradorligini miqdoriy hamda sifat jihatdan baholash zarur. Aynan metodik yondashuvning mavjudligi interaktiv vosita va resurslarni kompetensiyaviy natijaga yo’naltiradi, ya’ni “qanday o’qitamiz?” savoliga aniq pedagogik javob beradi.

Mazkur tadqiqot ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, interaktiv vositalar va axborot resurslaridan tizimli foydalanishga asoslangan metodikani taklif etadi hamda uning kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ta’sirini taqqoslovchi tajriba asosida yoritadi.

Tadqiqot maqsadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi interaktiv vositalar va axborot resurslaridan tizimli foydalanishga asoslangan metodikani ishlab chiqish hamda uning kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi samaradorligini ilmiy asosda baholashdan iborat.

Tadqiqot materiallari va usullari. Tadqiqot 2023–2025 o’quv yillari davomida oliy ta’lim muassasasida tahsil olayotgan 120 nafar talaba ishtirokida o’tkazildi. Tadqiqotga jalb etilgan ishtirokchilar kasbiy tayyorgarlik darajasi, o’quv motivatsiyasi va axborot texnologiyalaridan foydalanish ko’nikmalariga ko’ra bir-biriga yaqin bo’lgan shaxslar orasidan tanlab olindi. Tadqiqot dizayni kvazi-eksperimental xarakterga ega bo’lib, unda taqqoslovchi va kuzatuv metodlari qo’llanildi.

Ishtirokchilar ikki guruhga ajratildi: nazorat guruhi (60 nafar) va tajriba guruhi (60 nafar). Nazorat guruhida o’quv jarayoni an’anaviy usullar asosida olib borildi, tajriba guruhida esa interaktiv ta’lim platformalari, elektron axborot resurslari, muammoli vaziyatlar asosida o’qitish, onlayn testlar, virtual muhokamalar va raqamli portfoliolar tizimli ravishda joriy etildi.

Kasbiy kompetensiyalarni baholash uchun mualliflik diagnostik kartalari, ekspert baholash, o’z-o’zini baholash so’rovnomalari hamda faoliyat mahsulotlarini tahlil qilish usullari qo’llanildi. Statistik tahlil uchun o’rtacha ko’rsatkichlar, foizlar va dinamik o’zgarishlar tahlili amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalar. Tadqiqot natijalari tajriba jarayonining to’liq tashkil etilishi, ishtirokchilar bilan ishlash tartibi, guruhlash mexanizmi, qo’llangan ta’lim metodlari va baholash mezonlari asosida izchil tahlil qilindi. Dastlab, barcha talabalar bilan kirish diagnostikasi o’tkazilib, ularning boshlang’ich kasbiy kompetensiyalar profili shakllantirildi. Bu bosqichda bilim komponenti (asosiy nazariy tushunchalarni bilish), amaliy ko’nikmalar (masalalarni bajarish tezligi va aniqligi), kommunikativ kompetensiya (jamoada ishlash, fikr bildirish), raqamli savodxonlik (resurslarni izlash, platformalarda ishlash) va mustaqil qaror qabul qilish (keys-vaziyatlarda tanlov) ko’rsatkichlari alohida baholandi.

So’ngra ishtirokchilar ikki guruhga ajratildi: nazorat guruhi va tajriba guruhi. Guruhlashda talabalar o’qish ko’rsatkichlari, IT ko’nikmalari va motivatsiya darajasining taxminan teng bo’lishiga e’tibor qaratildi. Tadqiqot davomida nazorat guruhi an’anaviy o’qitish rejimida, tajriba guruhi esa maxsus ishlab chiqilgan interaktiv-metodik model asosida o’qitildi.

Tajriba guruhidagi metodik model uchta asosiy yo’nalishda amalga oshirildi. Birinchi yo’nalish “interaktiv o’qitish ssenariylari” bo’lib, bunda har bir mavzu muammoli vaziyat bilan boshlanib, talabalar keysni tahlil qilish, rol o’ynash, “aqliy hujum”, debat va jamoaviy qaror qabul qilish orqali yechim ishlab chiqishga yo’naltirildi. Ikkinchi yo’nalish “axborot resurslari bilan ishlash algoritmi” bo’lib, talabalar ilmiy maqolalar, elektron kutubxonalar, normativ

hujjatlar va ta'lim platformalaridan foydalanib ma'lumot topish, uni baholash, saralash, konspektlash va natija chiqarish bo'yicha bosqichma-bosqich yo'riqnoma asosida ishladilar. Uchinchi yo'nalish "raqamli portfolio va monitoring" bo'lib, har bir talaba topshiriqlar natijasini elektron portfolioga joylab bordi, o'z-o'zini baholash shakllarini to'ldirdi va haftalik refleksiya yozuvlari orqali o'z rivojlanish dinamikasini ifodaladi.

Baholash jarayoni ham faqat yakuniy test bilan cheklanmagan holda, ko'p manbali (multisource) yondashuvda olib borildi. Ya'ni, test natijalari, amaliy topshiriqlar sifati, jamoaviy ishlarda ishtirok faolligi, taqdimotlar himoyasi, ekspert bahosi va o'z-o'zini baholash natijalari birlashtirilib, umumiy kompetensiya indeksi hisoblandi. Shu tarzda olingan natijalar guruhlar kesimida taqqoslandi.

1-jadval. Boshlang'ich diagnostika bo'yicha kompetensiyalar profili (0–100% shkalada)

Ko'rsatkichlar (kompetensiya komponentlari)	Nazorat (n=60)	Tajriba (n=60)
Nazariy bilimlarni qo'llash	52,3	53,1
Amaliy ko'nikmalar (topshiriq bajarish)	48,6	49,2
Kommunikativ kompetensiya (hamkorlik)	50,1	51,0
Raqamli savodxonlik (resurs bilan ishlash)	47,9	48,5
Mustaqil qaror qabul qilish (keys)	46,8	47,5

Jadval tadqiqot boshida ikki guruh ko'rsatkichlari bir-biriga juda yaqin ekanini ko'rsatadi. Bu holat tajriba natijalarini to'g'ri taqqoslash imkonini berdi. Ayniqsa, "raqamli savodxonlik" va "mustaqil qaror qabul qilish" komponentlarida har ikki guruhda boshlang'ich daraja o'rtacha va pastroq ekanligi aniqlandi, bu esa interaktiv vositalar va resurslardan tizimli foydalanish zaruratini asoslaydi.

Tajriba bosqichi 12 hafta davom etdi. Har hafta 1 ta muammoli keys, 1 ta axborot qidiruvi topshirig'i, 1 ta jamoaviy taqdimot yoki muhokama hamda 1 ta reflektiv yozuv amalga oshirildi. Har bir topshiriq o'zining mezonlari (rubrikalari) asosida baholandi. Nazorat guruhida esa darslar asosan ma'ruza–amaliy mashg'ulot–uy vazifasi shaklida olib borildi, raqamli resurslardan foydalanish tavsiya qilindi, biroq majburiy algoritm va portfolio monitoring joriy etilmadi.

2-jadval. Tajriba yakunida kompetensiyalar dinamikasi (0–100% shkalada)

Ko'rsatkichlar	Nazorat guruhi (n=60)	Tajriba guruhi (n=60)
Nazariy bilimlarni qo'llash	60,4	78,6
Amaliy ko'nikmalar	57,2	82,1
Kommunikativ kompetensiya	59,0	80,3
Raqamli savodxonlik	58,4	85,2
Mustaqil qaror qabul qilish	55,6	79,4

Tajriba guruhida barcha ko'rsatkichlar bo'yicha keskin ijobiy o'sish qayd etildi. Eng katta o'sish "raqamli savodxonlik"da kuzatildi (48,5% → 85,2%), bu esa axborot resurslari bilan ishlash algoritmi va portfolioga asoslangan monitoringning samarali bo'lganini ko'rsatadi. "Amaliy ko'nikmalar" va "kommunikativ kompetensiya"ning yuqori o'sishi esa keys, debat, rol o'ynash va jamoaviy himoya metodlari ta'siri bilan izohlanadi. Nazorat guruhida ham ijobiy o'sish bor, biroq u asosan tabiiy o'quv jarayoni va takroriy mashqlar hisobiga bo'lib, tajriba guruhidagidek kompleks va barqaror xarakter kasb etmadi.

Natijalarni chuqurroq tahlil qilish uchun yakuniy integral indeks ham hisoblandi. Integral indeksga besh komponentning o'rtacha qiymati hamda ekspert bahosi (amaliy

vaziyatda ish yuritish sifati) qo'shimcha koeffitsiyent bilan kiritildi. Shuningdek, talabalarning o'quv motivatsiyasi va o'z-o'zini boshqarish ko'rsatkichlari bo'yicha ham sifat tahlili o'tkazildi.

3-jadval. Kasbiy kompetensiyalar bo'yicha integral indeks va o'sish ko'rsatkichlari

Guruhlar	Boshlang'ich integral indeks	Yakuniy integral indeks	Umumiy o'sish (foiz punkt)
Nazorat guruhi	49,5	58,1	+8,6
Tajriba guruhi	50,2	80,1	+29,9

Jadval tajriba guruhida integral indeks bo'yicha o'sish nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanini ko'rsatadi. Bu farq metodikaning samaradorligini tasdiqlaydi: tajriba guruhida kompetensiyalar nafaqat bilim darajasida, balki amaliy ko'nikmalar, kommunikatsiya, raqamli muhitda ishlash va mustaqil qaror qabul qilish kabi "kasbiy faoliyatga yaqin" komponentlar bo'yicha ham barqaror rivojlandi. Shuningdek, portfoliolar tahlili shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhidagi talabalar topshiriqlarni bajarishda manbalarni ko'proq diversifikatsiya qilgan, dalillarga tayangan, xulosalarni aniqroq asoslagan va refleksiya yozuvlarida o'z kamchiliklarini real baholay olgan.

Umuman olganda, natijalar shuni ko'rsatdiki, interaktiv vositalar va axborot resurslaridan foydalanish faqat texnik qulaylik emas, balki didaktik jihatdan maqsadli tashkil etilganda kasbiy kompetensiyalarni kompleks rivojlantiruvchi metodik mexanizmga aylanadi. Ayniqsa, ta'lim jarayonida "resursdan foydalanish"ning o'zi emas, balki "resurs bilan ishlash madaniyati"ni (izlash–baholash–saralash–qo'llash–taqdim etish–refleksiya) bosqichma-bosqich o'rgatish natijadorlikni keskin oshirdi.

Muhokama. Olingan natijalar interaktiv vositalar va axborot resurslaridan tizimli foydalanish kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim pedagogik omil ekanini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida talabalarning o'quv jarayoniga faol jalb etilishi, mustaqil fikrlashi va real kasbiy vaziyatlarga moslashuvi sezilarli darajada oshdi. Bu holat avvalgi tadqiqotlarda keltirilgan ilmiy xulosalar bilan hamohang bo'lib, interaktiv yondashuv shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy ta'lim paradigmasining amaliy ifodasi ekanini yana bir bor tasdiqlaydi [3].

Shuningdek, axborot resurslarining ochiqqligi va tezkorligi talabalarni doimiy o'z ustida ishlashga undadi, bu esa ularning kasbiy refleksiyasi va mas'uliyat hissini kuchaytirdi. Nazorat guruhi bilan solishtirilganda, tajriba guruhida olingan yuqori natijalar metodikaning amaliy ahamiyatga egaligini ko'rsatadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, interaktiv vositalar va axborot resurslaridan foydalanishga asoslangan metodika kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega bo'lib, u ta'lim oluvchilarning bilim, amaliy ko'nikma, kommunikativ malaka va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini kompleks tarzda shakllantirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari ushbu yondashuvni oliy va kasbiy ta'lim tizimida keng joriy etish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi hamda kelgusida raqamli ta'lim texnologiyalarini yanada takomillashtirish uchun ilmiy-metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Зеер Э. Ф. Профессиональные компетенции: структура, содержание, развитие // Педагогика. – 2018. – № 6. – С. 21–30.
2. Хуторской А. В. Компетентностный подход в образовании: теория и практика. – Москва: Академия, 2019. – 304 с.

3. Вербицкий А. А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход. – Москва: Юрайт, 2020. – 356 с.
4. Беспалько В. П. Слагаемые педагогической технологии. – Москва: Педагогика, 2017. – 192 с.
5. Полат Е. С., Бухаркина М. Ю. Современные педагогические и информационные технологии в системе образования. – Москва: Академия, 2021. – 368 с.
6. Роберт И. В. Теория и методика информатизации образования. – Москва: БИНОМ, 2019. – 400 с.
7. Селевко Г. К. Современные образовательные технологии. – Москва: Народное образование, 2018. – 256 с.
8. Jonassen D. H. Learning to Solve Problems: A Handbook for Designing Problem-Solving Learning Environments. – New York: Routledge, 2019. – 384 p.
9. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. – 4th edition. – Maidenhead: Open University Press, 2018. – 389 p.
10. Kolmos A., de Graaff E., Du X. Research on PBL Practice in Engineering Education. – Rotterdam: Sense Publishers, 2020. – 275 p.
11. OECD. Education 2030: The Future of Education and Skills. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 162 p.
12. UNESCO. Rethinking Education: Towards a Global Common Good? – Paris: UNESCO Publishing, 2017. – 86 p.
13. Garrison D. R., Vaughan N. D. Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines. – San Francisco: Jossey-Bass, 2018. – 245 p.
14. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators (DigCompEdu). – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. – 94 p.
15. Anderson T., Dron J. Three Generations of Distance Education Pedagogy // International Review of Research in Open and Distributed Learning. – 2018. – Vol. 19. – No. 2. – P. 1–15.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).